ISSN 2181-2764
2026

SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-I6-I3-20 Pages: 201-210

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

THE BORROWED WORDS IN MODERN ARABIC AND THEIR ORIGIN CAUSES

Ikrom Y. Bultakov
Associate professor, PhD
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
bultakov68@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

Robiya M. Ma'murova
Master's student
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
mamurovarobiyaxon@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: borrowed words, lexical borrowing, modern Arabic language, globalization, language contact, diglossia, language policy, foreign language influence, sociolinguistic factors, technological development, linguistic change, Arabic terminology.

Received: 08.05.26
Accepted: 09.05.26
Published: 10.05.26

Abstract: This article is devoted to the study of borrowed words in modern Arabic and the main causes of their emergence. The research aims to identify and analyze the linguistic, social, political, historical, and technological factors that have contributed to the expansion of lexical borrowing in the Arabic language. Special attention is given to the role of globalization, the dominance of foreign languages such as English and French, the phenomenon of diglossia, and the inconsistencies in language policy across Arab countries. The study is based on descriptive, comparative, and analytical methods, allowing for a comprehensive examination of both internal and external influences on the Arabic lexicon. In addition, the paper considers the impact of the educational system, scientific development, and historical processes, including colonial legacy, on the increasing presence of borrowed words. The findings demonstrate that lexical borrowing in modern Arabic is not merely a natural linguistic process, but rather a complex phenomenon shaped by a combination of sociocultural, political, and economic conditions. While borrowed words contribute to the enrichment

of the language and facilitate the expression of new concepts, their excessive use may lead to the weakening of the functional status and identity of the Arabic language.

ZAMONAVIY ARAB TILIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Ikrom Y. Bultakov
PhD, dotsent
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
bultakov68@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

Robiya M. Ma’murova
Magistratura talabasi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mamurovarobiyaxon@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so’zlar: o‘zlashma so‘zlar, leksik o‘zlashma, zamonaviy arab tili, globalizatsiya, til aloqalari, diglossiya, til siyosati, xorijiy tillar ta’siri, ijtimoiy-lingvistik omillar, texnologik taraqqiyot, til o‘zgarishi, arab terminologiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar va ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda arab tilida o‘zlashma leksikaning kengayishiga ta’sir etuvchi lingvistik, ijtimoiy, siyosiy, tarixiy hamda texnologik omillar har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, globalizatsiya jarayonlari, ingliz va fransuz tillarining ustunligi, diglossiya hodisasi, til siyosatidagi nomuvofiqliklar hamda ta’lim tizimidagi muammolar o‘zlashma so‘zlarning ko‘payishiga olib keluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot tavsifiy, qiyosiy va analitik metodlar asosida olib borilib, arab tilidagi o‘zlashma so‘zlarning shakllanishi va qo‘llanishi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy omillar, jumladan mustamlaka davri va uning tilga ta’siri ham o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar oddiy lingvistik hodisa emas, balki murakkab ijtimoiy-lingvistik jarayon bo‘lib, u ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. O‘zlashma so‘zlar tilni boyitishga xizmat qilsa-da, ularning haddan tashqari ko‘payishi arab tilining funksional mavqeiga va milliy xususiyatlariga salbiy

ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

ЗАИМСТВОВАННЫЕ СЛОВА В СОВРЕМЕННОМ АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ И ПРИЧИНЫ ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЯ

Икром Ю. Булатаков
Доцент, PhD
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
bultakov68@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

Робия М. Маъмурова
Магистрант
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
mamurovarobiyaxon@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: заимствованные слова, лексическое заимствование, современный арабский язык, глобализация, языковые контакты, диглоссия, языковая политика, влияние иностранных языков, социолингвистические факторы, технологическое развитие, языковые изменения, арабская терминология.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию заимствованных слов в современном арабском языке и причин их возникновения. В работе рассматриваются лингвистические, социальные, политические, исторические и технологические факторы, влияющие на расширение заимствованной лексики в арабском языке. Особое внимание уделяется процессам глобализации, доминированию иностранных языков, таких как английский и французский, явлению диглоссии, а также особенностям языковой политики в арабских странах.

Исследование основано на описательном, сравнительном и аналитическом методах, что позволяет комплексно рассмотреть внутренние и внешние причины заимствования. Кроме того, анализируется влияние образовательной системы, научного развития и исторических процессов, включая колониальное наследие, на увеличение количества заимствованных слов.

Результаты исследования показывают, что заимствование в современном арабском языке представляет собой сложный социолингвистический процесс, обусловленный как внутренними, так и внешними факторами. Несмотря на то, что заимствованные слова способствуют

обогащению языка, их чрезмерное использование может отрицательно сказаться на функциональном статусе и национальной идентичности арабского языка.

Kirish. Zamonaviy arab tili globallashuv, texnologik taraqqiyot va tillararo aloqalarning kuchayishi ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. Ayniqsa, ingliz va fransuz tillarining ilm-fan, texnologiya va kommunikatsiya sohalarida ustunligi arab tiliga ko‘plab o‘zlashma so‘zlarning kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zlashma so‘zlar til taraqqiyotining tabiiy hodisasi hisoblanadi. Biroq zamonaviy arab tilida bu jarayon oddiy lingvistik hodisadan chiqib, ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar bilan bog‘liq murakkab jarayonga aylangan. Xususan, til siyosatidagi nomuvofiqliklar, ta’lim tizimidagi muammolar, diglossiya hodisasi va xorijiy tillarning yuqori ijtimoiy mavqei o‘zlashmalarni kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni kompleks tarzda tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar va ularning kelib chiqish sabablari masalasi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Xususan, arab tilining zamonaviy holati, til siyosati, globalizatsiya ta’siri va til aloqalari masalalari ushbu muammo bilan bevosita bog‘liq holda tadqiq etilgan. Arab tilining ijtimoiy-lingvistik holati va undagi muammolarni o‘rganishda marokashlik olim Bujmaa Alining ”أزمة اللغة العربية: الأسباب، المظاهر وسبل التجاوز“ nomli maqolasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda arab tilining inqirozi ko‘p omilli hodisa sifatida talqin qilinib, unda til siyosati, ta’lim tizimi, ijtimoiy omillar hamda xorijiy tillarning bosimi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiladi . Muallif, ayniqsa, arab tilining ijtimoiy funksiyalarining qisqarishi va uning ilm-fan hamda iqtisodiyot sohalaridan siqib chiqarilishi o‘zlashma so‘zlarning kengayishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Arab tilining siyosiy va ijtimoiy rivojlanishidagi muammolarni chuqur tahlil qilgan olimlardan biri AbdulQodir al-Fasi al-Fihri bo‘lib, uning “السياسة اللغوية في البلاد العربية” asarida arab mamlakatlaridagi til siyosatining nomuvofiqligi, terminologiya muammolari va tilni rejalashtirishdagi kamchiliklar keng yoritilgan. Muallif o‘z tadqiqotida arab tilida ilmiy terminologiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘zlashma so‘zlarning ko‘payishiga sabab bo‘layotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, Hadi Nahrning “اللغـة العربيـة وتحـديات العولمـة” asarida globalizatsiya sharoitida arab tilining holati, xorijiy tillarning ta’siri va tilning funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Muallif arab tilidagi o‘zlashmalarni global jarayonlarning tabiiy natijasi sifatida baholaydi, biroq ularning haddan tashqari ko‘payishi tilning mustaqilligiga xavf tug‘dirishini ta’kidlaydi. Mazkur tadqiqotda yuqorida keltirilgan ilmiy manbalarga tayangan holda

zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlarning kelib chiqish sabablari kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy metod orqali o‘zlashma so‘zlarning umumiy xususiyatlari aniqlanib, qiyosiy metod yordamida ularning kelib chiqish omillari tahlil qilindi. Shuningdek, analitik metod asosida ijtimoiy, siyosiy va tarixiy omillarning o‘zlashma jarayoniga ta’siri baholandi.

Natijalar. Zamonaviy arab tilida o‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishi ko‘p omilli va murakkab ijtimoiy-lingvistik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon faqat lingvistik ehtiyoj natijasi emas, balki siyosiy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan tizimli hodisadir.

Arab tilining hozirgi holatini tahlil qilgan tadqiqotlarda uning funksional imkoniyatlarining qisqarishi alohida ta’kidlanadi. Xususan, ilm-fan, texnologiya va iqtisodiyot sohalarida arab tilining mavqei pasayib, uning o‘rnini ingliz va fransuz tillari egallab bormoqda. Bu holat natijasida yangi tushunchalar va terminlar arab tiliga bevosita o‘zlashma shaklida kirib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, globalizatsiya jarayoni o‘zlashma so‘zlarning kengayishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Global axborot makonida ingliz tilining yetakchi o‘rni sababli ilmiy va texnik terminologiya asosan ushbu til orqali shakllanadi. Natijada arab tilida yangi tushunchalarni ifodalashda o‘zlashma so‘zlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Bu jarayon ko‘pincha tarjima yoki muqobil yaratishdan ko‘ra tezroq va qulayroq yo‘l sifatida qaraladi.

Biroq o‘zlashma so‘zlarning kengayishini faqat globalizatsiya bilan izohlash yetarli emas. Arab tilidagi bu jarayonning chuqur ildizlari mavjud bo‘lib, ular, avvalo, til siyosati bilan bog‘liq. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, arab mamlakatlarida til siyosatining izchil emasligi arab tilining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Rasmiy darajada arab tiliga ustuvorlik berilgan bo‘lsa-da, amaliyotda ta’lim, ilm-fan va boshqaruv sohalarida xorijiy tillar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa arab tilining funksional imkoniyatlarini cheklab, o‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishiga zamin yaratadi.

Arab tilidagi o‘zlashmalar muammosini chuqurroq tushunishda diglossiya hodisasi muhim o‘rin tutadi. Arab tilida adabiy til (fusha) va lahjalar o‘rtasidagi tafovut til tizimining ichki murakkabligini yuzaga keltiradi. Kundalik hayotda asosan lahjalar qo‘llaniladi va ular o‘zlashma so‘zlarni tez va erkin qabul qiladi. Natijada o‘zlashmalar avvalo og‘zaki nutqda paydo bo‘lib, keyinchalik yozma tilga ham kirib boradi. Bu esa arab tilida o‘zlashma jarayonining tezlashishiga olib keladi.

Ta’lim tizimi ham o‘zlashma so‘zlarning kengayishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab arab mamlakatlarida oliy ta’lim xorijiy tillarda olib boriladi, ilmiy adabiyotlar ham asosan ingliz yoki fransuz tilida yaratiladi. Bu esa arab tilida ilmiy terminologiyaning yetarli darajada

rivojlanmasligiga olib keladi. Natijada yangi ilmiy tushunchalar arab tiliga o‘zlashma shaklida kirib keladi va mustahkamlanadi.

Tarixiy omillar ham mazkur jarayonda muhim ahamiyatga ega. Mustamlaka davrida arab tilining roli keskin pasaygan va uning o‘rnini fransuz hamda ingliz tillari egallagan. Bu davrda ta’lim, boshqaruv va ilmiy faoliyat xorijiy tillarda olib borilgan. Mazkur tarixiy meros hozirgi davrda ham o‘z ta’sirini saqlab qolgan bo‘lib, arab tilining ayrim sohalarda cheklanishiga va o‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy-psixologik omillar ham e’tiborga molikdir. Zamonaviy arab jamiyatida xorijiy tillarni bilish yuqori maqom va zamonaviylik belgisi sifatida qaraladi. Natijada arab tiliga nisbatan e’tibor pasayadi va o‘zlashma so‘zlardan foydalanish kengayadi. Bu holat ayniqsa yoshlar va ta’lim muassasalari muhitida yaqqol kuzatiladi.

Shuningdek, arab tilida terminologik tizimning yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muhim sabab hisoblanadi. Turli arab mamlakatlarida bir xil tushuncha uchun turli terminlarning qo‘llanilishi til birligining buzilishiga olib keladi. Bu esa yagona terminologik tizimning yo‘qligi sababli o‘zlashma so‘zlarning keng qo‘llanishiga olib keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar ikki tomonlama xususiyatga ega. Bir tomondan, ular tilni boyitadi va yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, ularning haddan tashqari ko‘payishi arab tilining milliy xususiyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishi tilning ichki muammolari va tashqi bosimlarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Ushbu jarayonni to‘liq tushunish uchun uni faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy-lingvistik va madaniy kontekstda o‘rganish zarur. Zamonaviy arab tilida o‘zlashma so‘zlar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy nutqda ham keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, texnologiya, media, iqtisodiyot va kundalik hayotga oid sohalarda bu jarayon yaqqol namoyon bo‘ladi.

Texnologiya sohasida ingliz tilidan kirib kelgan o‘zlashmalar eng faol qatlamni tashkil etadi. Masalan:

كمبيوتر - (kompyuter)

لابتوب - (noutbuk)

إنترنت - (internet)

واي فاي - (Wi-Fi)

Mazkur so‘zlar arab tilida keng qo‘llanilib, hatto ba’zan ularning arabcha muqobillari mavjud bo‘lsa-da, amaliy nutqda o‘zlashma variantlari ustunlik qiladi. Masalan, “حاسوب” so‘zi mavjud bo‘lsa ham, ko‘pchilik “كمبيوتر” variantini ishlatadi.

Media va kommunikatsiya sohasida ham o‘zlashma so‘zlar keng tarqalgan:

ميديا (media)

تليفزيون (television)

راديو (radio)

بودكاست (podcast)

Bu yerda e’tiborli jihat shundaki, o‘zlashma so‘zlar ko‘pincha asl shakliga yaqin holda qabul qilinadi va arab tilining fonetik tizimiga moslashtiriladi.

O‘zlashma so‘zlarning morfologik moslashuvi:

Arab tiliga kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar asta-sekin til tizimiga moslashadi va arab grammatik qonunlariga bo‘ysunadi. Bu jarayon, ayniqsa, ko‘plik shakllarida yaqqol ko‘rinadi.

Masalan:

كمبيوتر - كمبيوترات

تليفون - تليفونات

موبايل - موبايلات

Bu misollar o‘zlashma so‘zlarning arab tilining morfologik tizimiga moslashganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ayrim hollarda o‘zlashma so‘zlardan fe’llar ham yasaladi:

فرمت (format qilmoq)

دَوْنْلَدَ (download qilmoq)

شَيَّرَ (share qilmoq)

Bu jarayon o‘zlashma so‘zlarning til tizimiga chuqur singib borayotganini ko‘rsatadi.

Semantik o‘zgarishlar va ma’no transformatsiyasi:

O‘zlashma so‘zlar arab tiliga kirgach, ba’zan ularning ma’nosi o‘zgaradi yoki torayadi. Bu hodisa semantik moslashuv deb ataladi.

Masalan:

موبايل so‘zi ingliz tilida “harakatchan” ma’nosini ham bildiradi, ammo arab tilida u faqat telefon ma’nosida qo‘llanadi.

شات (chat) so‘zi arab tilida faqat internet orqali yozishma ma’nosida ishlatiladi.

Bu holat o‘zlashma so‘zlarning arab tilida yangi semantik doiraga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

Lahjalarda o‘zlashmalar va ularning roli

Arab lahjalari o‘zlashma so‘zlarni qabul qilishda adabiy tilga qaraganda ancha faol hisoblanadi.

Masalan, Misr lahjasida:

أوك (ok)

فيسبوك (Facebook)

ماسنجر (Messenger)

Marokash va Jazoir lahjalarida esa fransuz tilidan kirgan so‘zlar keng qo‘llaniladi:

طابلة (table)

بورتابل (portable)

Bu holat lahjalarning ochiq va moslashuvchan tizimga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘zlashma so‘zlarning kommunikativ funksiyasi:

O‘zlashma so‘zlar zamonaviy arab jamiyatida kommunikativ ehtiyojni qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ayniqsa:

- yangi texnologiyalar
- ilmiy tushunchalar
- global madaniyat

bilan bog‘liq sohalarda o‘zlashmalar muqobilisiz qo‘llaniladi.

Masalan:

إنستغرام

تيك توك

ترند (trend)

Bu kabi birliklar global madaniyatning arab tiliga kirib kelganini ko‘rsatadi.

O‘zlashmalar va til identiteti masalasi. O‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishi arab tilining identiteti bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltiradi. Bir tomondan, ular zamonaviylik va global integratsiyaning belgisi sifatida qaraladi. Ikkinchi tomondan esa, ularning haddan tashqari ko‘payishi tilning milliy xususiyatlariga xavf tug‘diradi. Shu sababli ko‘plab tilshunoslar o‘zlashmalarni nazorat qilish va arabcha muqobillarni yaratish zarurligini ta’kidlaydi.

O‘zlashma jarayonining istiqbollari. Zamonaviy sharoitda o‘zlashma jarayonining to‘xtashi ehtimoldan yiroq. Aksincha, globalizatsiya chuqurlashgan sari bu jarayon yanada kuchayadi.

Shu sababli quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish muhim hisoblanadi:

- arab tilida terminologiya yaratish
- ilmiy tarjimani rivojlantirish
- ta’lim tizimini arab tiliga moslashtirish

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar oddiy lingvistik hodisa emas, balki murakkab ijtimoiy-lingvistik jarayon hisoblanadi.

O‘zlashma so‘zlarning keng tarqalishi til taraqqiyotining tabiiy natijasi bo‘lsa-da, arab tilida bu jarayon globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, til siyosati, ta’lim tizimi, tarixiy omillar va ijtimoiy qarashlar kabi ko‘plab omillar ta’sirida yanada jadallashgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, global axborot makonida ingliz tilining ustunligi arab tiliga yangi terminlarning bevosita kirib kelishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, arab mamlakatlarida til siyosatining izchil emasligi va ta’lim tizimida xorijiy tillarning ustunligi arab tilining ilmiy va funksional mavqeini pasaytirib, o‘zlashma so‘zlarning keng qo‘llanishiga zamin yaratmoqda.

Shuningdek, diglossiya hodisasi, ya’ni adabiy til va lahjalar o‘rtasidagi tafovut ham o‘zlashmalarni tezlashtiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Lahjalarning ochiq va moslashuvchan tabiati xorijiy so‘zlarni tez qabul qilishga imkon beradi va bu jarayon keyinchalik adabiy tilga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘zlashma so‘zlar arab tilining leksik boyligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi va yangi ilmiy hamda texnologik tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Biroq ularning haddan tashqari ko‘payishi tilning milliy xususiyatlari, terminologik tizimi va funksional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy arab tilini rivojlantirish jarayonida o‘zlashma so‘zlardan oqilona foydalanish, ularni tartibga solish va imkon qadar arabcha muqobillarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, yagona terminologik tizimni shakllantirish, ilmiy tarjimani rivojlantirish hamda ta’lim tizimini arab tiliga moslashtirish orqali o‘zlashma jarayonining salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

Umuman olganda, zamonaviy arab tilidagi o‘zlashma so‘zlar til rivojining ajralmas qismi bo‘lib, ularning kelib chiqish sabablarini chuqur o‘rganish til siyosatini to‘g‘ri yo‘naltirish va arab tilining kelajakdagi rivojlanishini ta’minlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. برنامج الأمم المتحدة الإنمائي. (2003). تقرير التنمية الإنسانية العربية: نحو إقامة مجتمع المعرفة. – عمّان. – 300 ص. (in Arabic)

2. بوجمعة، وعلي. (2019). أزمة اللغة العربية: الأسباب، المظاهر وسبل التجاوز. – بيروت: مركز دراسات الوحدة العربية. – 481 ص (in Arabic)

3. الأوراغي، محمد. (2010). التدريس بأي لغة لأي تنمية؟ – وجدة: منشورات كلية الآداب. – 180 ص. (in Arabic)

4. الودغيري، عبد العالي. (2008). اللغة والدين والهوية. – الدار البيضاء: إفريقيا الشرق. – 275 ص . (in Arabic)

5. الفاسي الفهري، عبد القادر. (2007). حوار اللغة. – الرباط: دار الأمان. – 210 ص. (in Arabic)

6. نهر، هادي. (2010). اللغة العربية وتحديات العولمة. – القاهرة: دار المعرفة. – 250 ص. (in Arabic)

7. أزمة اللغة العربية: الأسباب، المظاهر والحلول. (n.d.). – Center for Arab Unity Studies (CAUS). (in Arabic)

8. موت اللغة: قراءة في مأزق العربية الفصحى. (2025). – Al Jazeera. (in Arabic)

9. Holes, C. (2004). Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties. – Washington: Georgetown University Press. – 398 p. (in English)

10. Owens, J. (2006). A Linguistic History of Arabic. – Oxford: Oxford University Press. – 344 p. (in English)

11. Versteegh, K. (2001). The Arabic Language. – Edinburgh: Edinburgh University Press. – 276 p. (in English)